



YANGI O`ZBEKISTONNING OILA QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Arzibekova Xadicha Raxmonkulovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti huquqiy fanlar kafedrası o`qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Yangi O`zbekistonni barpo etish davridagi shiddatli islohotlar milliy qonunchiligimizda o`z aksini topishi, jumladan jamiyatni asosiy bo`gini bo`lgan oila institutini rivojlanishi va huquqiy tartibga solish jarayonlariga doir fikr-muloxazalar yoritilgan. Yangi tahrirdagi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ aktlarni, Oila kodeksini muvofiqlashtirish va ularni takomillashtirish boyicha yangi normalar bilan to`ldirish, bir nechtasiga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish taklif etilgan.

**Kalit so`zlar:** oila instituti, oila qonunchiligi, nikoh, ota-ona, ta`lim-tarbiya, reproduktiv salomatlik, surrogat ona, nikoh shartnomasi.

Yangi O`zbekiston poydevorini barpo etish davrida amalga oshirilayotgan tub demokratik o`zgarishlar va islohotlar milliy qonunchiligimizda ham o`z aksini topmoqda. Prezident SH. M. Mirziyoyev takidlaganidek, “Yangi O`zbekiston -demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume`tirof etilgan norma va prinsiplarga qat`iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do`stona hamkorlik tamoillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalq uchun erkin, obod, farovon hayot yaratib berishdan iborat bo`lgan davlatdir” [1;2].



Zamonaviy qonunchilik mantiqan izchil islohotlarga mos bo'lishi zarur. O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan demokratik, huquqiy, ijtimoiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish g'oyasini amalga oshirishda qonunchilik bazasining mukammalligi katta ahamiyatga ega. Konstitutsiyamizning "Oila, bolalar va yoshlar" nomli XIV – bobida jamiyatning asosiy bo'gini va ijtimoiy tayanchi bo'lgan oila institutini rivojlantirish, ezgu insoniy qadriyatlarimizni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish asoslari, yoshlarning huquq va burchlari o'z aksini topgan. Konstitutsiyaning 76 – moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi" deyilgan [2].

Jamiyatni paydo bo'lishida oilaning roli beqiyosdir. Inson va jamiyat, shaxs va oilaning o'zaro munosabatlarini uyg'unlashtirish oila to'g'risidagi qonunchiligini asosini tashkil etadi. Nikoh – oila muosabatlari ahloqiy va huquqiy qoidalar bilan tartibga solinadi. Shu bois ham Konstitutsiyamizda nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga asoslanganligiga doir norma qo'shilganligi katta ahamiyatga egadir. Oila avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan, milliy urf-odatlar saqlanadigan, yoshlarni ma'naviy qiyofasini shakllanishiga kuchli ta'sir qiladigan tarbiya o'chog'idir. An'anaviy qadriyatlarni oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi prinsip sifatida O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 2-moddasida belgilab qo'yilishini taklif etamiz.

Konstitutsiyaning 77 – moddasida "Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar" deyilgan. Voyaga yetmagan farzandlarini ta'lim olishi uchun ota-onalar mas'ul ekanligi ilk bor konstitutsion norma sifatida mustahkamlandi. Konstitutsiya normativ-huquqiy hujjatlar



tizimida yuridik ustunlikka ega va amaldagi qonunchilik uchun asosdir. Demak, oilaviy munosabatlarni huquqiy jihatdan kompleks tartibga solishini ta'minlovchi Oila kodeksi yangi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 1998 yilning 30 aprelida qabul qilingan. Oila to'g'risidagi qonunchilikning vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir. Yangi O'zbekiston uchun oila institutini mustahkamlash bo'yicha davlat siyosati, bu sohada normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish zarurligi Prezidentning 2018 yil 27 iyundagi 3808-son "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida belgilangan [3].

O'zbekistonda oila institutini mustahkamlash bo'yicha quyidagi asosiy yo'nalishlar belgilangan:

oila institutini mustahkamlashning institutsional va huquqiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish;

zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish;

demografik rivojlanishni rag'batlantirish va oila farovonligi darajasini oshirish;

oilaning ta'lim-tarbiyaviy salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash;

oilalarga ta'sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko'rsatishning samarali tizimini yaratish.

Mazkur konsepsiyadan kelib chiqib 2018 yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga bitta yangi modda va 17 tasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ular



nikoh yoshi, ota-ona hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlari, alimentlar va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishga doir. Demak, oila qonunchiligini takomillashtirish asosan Oila kodeksiga bosqichma-bosqich qo'shimcha va o'zgartirish kiritish yoli bilan amalga oshirilmoqda. Bizning fikrimizcha, oila institutini mustahkamlashning qonunchilik asoslari mukammal emas, huquqni qo'llash amaliyotini va ilg'or xorij amaliyotini o'rganish asosida oilani himoya qilish va qo'llab-quvvatlash sohasida mustahkam huquqiy asos yaratilishi borasidagi ishlar bardavom bo'lishi va oila huquqini tartibga solish predmetini kengaytirish tendensiyasi munosabati bilan Oila kodeksining yangi tahririni ishlab chiqish zarurati yuzaga kelgan. Yangi Oila kodeksi umumiy va maxsus qismlardan iborat bo'lishi kerak. Umumiy qismda oila qonunchiligi asoslari, tamoyillari, huquqiy tartibga solishning predmeti, sub'ektlar tarkibi, oila huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va tugatilishi asoslari, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish va ro'yxatga olish to'g'risidagi qoidalar bo'lishi kerak. Maxsus qism esa er-xotin, sobiq er va xotin o'rtasidagi, ota-onalar va bolalar, boshqa oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, fuqarolarning reproduktiv huquqlarini amalga oshirish bo'yicha munosabatlar, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni jo'ylashtirishga doir normalarni o'z ichiga olishi kerak deb o'ylaymiz. Oila kodeksining mazkur tuzilishi O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida", "Ta'lim to'g'risida", "Vasiylik va homiylik to'g'risida", "Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar va qarorlarda mavjud oila huquqi normalarini maxsus qismga kiritish imkonini beradi.

Amaldagi oila qonunchiligini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining bir qator moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarur, deb hisoblaymiz. Kodeksning "Nikoh tuzish tartibi", deb nomlangan 13-moddaning birinchi qismida yozilishicha "Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi" [4;8]. Lekin bu organning rasmiy nomi o'zgacha. U FHDYO, yani fuqarolik holati



dalolatnomalarini yozish organidir. Mana shunday davlat organinig nomlanishini noto`g`ri yozilishi kodeksning 18, 42, 43, 47, 48, 60, 204, 218 - moddalarida uchraydi. Demak, Oila kodeksining 13-moddasi birinchi va yettinchi qismlari, shuningdek sanab o`tilgan moddalarda “qayd etish” so`zlari “yozish” so`zi bilan almashtirilishi kerak. Yaqin qarindoshlar o`rtasidagi nikohlarning, tug`ma nuqsonlar bilan bolalar tug`ilishining oldini olish maqsadida Oila kodeksining “Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar”, deb nomlangan 16- moddasiga aka-uka, opa-singillarning farzandlari o`rtasida nikoh tuzishga yol qo`yilmasligini ham belgilab qo`yish zarurdir. Chunki bunday ta`qiq millat genofondini sog`lomlashtirishga xizmat qiladi.

Er-xotinning shaxsiy huquqlaridan biri bu familiya tanlashdir. Vazirlar mahkamasining 2023 yil 20 oktyabr 550-sonli qarori bilan tasdiqlangan Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarining 85-bandida Nikohlanuvchilar familiyalarining qo`shilishi orqali hosil bo`lgan familiya (masalan, kuyov Axmedov kelin Shuxratova, shunda kuyov Axmedov-Shuxratov kelin Axmedova-Shuxratova bo`ladi) umumiy familiya sifatida tanlanishi mumkinligi belgilangan [5]. Niko`hlanuvchilar tomonidan oilani umumiy familiyasi sifatida qo`sh familiyani tanlash huquqini Oila kodeksining 20- moddasiga qo`shimcha kiritish yoli bilan mustahkamlash lozim.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib Oila kodeksining 21- moddasining nomini “Er va xotinning bolalar ta`lim-tarbiyasi va oila turmushi masalalarini hal qilishi” deb o`zgartirish lozim. Normaning o`zini esa quyidagicha yozishni taklif etamiz: ”Er-xotin bolalar ta`lim-tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalarini birgalikda hal qiladilar”. Oila kodeksiga “Ta`lim oluvchilar ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari” nomli 73 1prim moddani kiritishni, va uning matnini quyidagicha bayon etishni taklif kilamiz:



“Ta’lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari bolaning o’qishi, va intellektual rivojlanishi uchun mas’uldir”.

Voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari quyidagi huquqlarga ega:

jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo’lgan bolalarga, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo’lgan bolalarga oilada ta’lim olish imkoniyatini berish;

oilada ta’lim olayotgan bolaning fikrini inobatga olgan holda uning o’qishini ta’limning har qanday bosqichida ta’lim tashkilotida davom ettirish to’g’risida qaror qabul qilish;

ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, ta’lim tashkilotlariga xayriya yordami ko’rsatish bo’yicha takliflar kiritish;

ta’limning mazmuni, qo’llanilayotgan ta’lim va tarbiya usullari, ta’lim texnologiyalari bilan, shuningdek o’z bolalarining o’quv fanlarini o’zlashtirishi natijalari bilan tanishish;

Voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari:

bolalarining umumiy o’rta, o’rta maxsus ta’lim yoki boshlang’ich professional ta’lim olishini ta’minlashi;

bolalarining o’quv mashg’ulotlariga qatnashishini ta’minlash va o’zlashtirishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

ta’lim tashkilotining ta’lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi ichki tartib-qoidalariga rioya etishi;

ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi shart.

Voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo’lishi mumkin”.



Oilaning reproduktiv salomatligi va demografik rivojlanishi jamiyat va davlat uchun ahamiyatli. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi 2019 yil 11-martdagi qonuniga ko'ra sog'ligi tufayli farzandli bo'la olmayotgan fuqarolarga yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish huquqi mustahkamlangan [6]. Lekin surrogat onalik (qondosh onalik)ning huquqiy asoslari mavjud emas. Demak, surrogat ona va unga homilani rivojlantirish va bo'lani tug'ish maqsadida embrionni ko'chirishga yozma rozilik bergan nikohda bo'lgan shaxslar o'rtasidagi munosabatlar huquqiy makonimiz doirasidan tashqarida. Shu sababli ba'zi farzandsiz er-xotinlar surrogat onalik qonunchilik normalari bilan belgilangan Rossiya va Qozog'istondagi tibbiyot muassalariga murojat qilmoqda. Surrogat ona bilan uning xizmatiga ehtiyoji bor er-xotinning huquq va majburiyatlarini Oila kodeksida mustahkamlashni zarur deb hisoblaymiz.

Oilada mulkiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish ham katta ahamiyatga egadir. Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari ikki asosda, yani, qonun va shartnoma asosida vujudga keladi. Xususiy mulkka bo'lgan munosabatlarning o'zgarishi, tadbirkorlikka keng yo'l berilishi, xususiy mulkdorlar sinfining ko'payib borishi natijasida nikoh shartnomasiga bo'lgan ehtiyoj ham ortib boradi. Nikoh shartnomasi tushunchasi Oila kodeksining 29-moddasida belgilangan. Unga ko'ra, nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi nikoh shartnomasi deb hisoblanadi. Oila kodeksining 30 - moddasiga ko'ra nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olinguniga qadar ham, shuningdek nikoh davrida ham tuzilishi mumkin. Nikoh davlat ro'yhatiga olingunga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi. Bundan, nikoh shartnomasi notarius tomonidan tasdiqlangan bo'lsa-da, u hech qanday oqibatlarga olib kelmaydi va nikoh ro'yxatga olingunga qadar olingan mol-mulk faqat ushbu mulk egasini hisoblanadi. Qonunda nikoh shartnomasi



tuzilgan paytdan boshlab nikoh davlat ro'yxatidan o'tkazilgunga qadar muddatni belgilash bilan bog'liq vaqt cheklovlari nazarda tutilmagan. Bizning fikrimizcha, qonunchilikdagi bo'shliqni bartaraf etish maqsadida Oila kodeksining 30-moddasi 2 - qismini quyidagi tahrirda bayon etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: "Nikoh shartnomasi notarial tasdiqlangan kundan boshlab bir yil ichida nikoh ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa kuchga kiradi. Belgilangan muddat o'tganidan keyin nikoh shartnomasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi va undan kelib chiqadigan majburiyatlar bekor qilinadi". Ommaviy axborot vositalarida nikoh shartnomasini tuzishni majburiy qilish, unga mulkiy munosabatlar bilan er-xotin o'rtasidagi shaxsiy munosabatlarni ham tartibga solish shartlarini kiritish to'g'risidagi fikrlarga qo'shilolmaymiz. "Nikoh shartnomasini vakil orqali tuzishga yol qo'yilmaydi"-degan norma belgilanishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinishi Oila kodeksi bilan bir qatorda oila huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa qonunlar va qonun osti normativ hujjatlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Oila qonunchiligini takomillashtirish yangi O'zbekistonda oila institutini mustahkamlash va rivojlantirish uchun asosdir. Shu bois oila konunchiligini takomillastirish masalalari fuqarolar, jamiyat va davlat uchun dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev. SH.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – Toshkent. :O'qituvchi, 2021.- B.12.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning „O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida“ 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son qarori.(Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 11.12.2019y.,06/19/5892/4134-son)



4. O`zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent.: Yuridik adabiyotlar publish, 2021.-B.8.
5. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nikoh,oila va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish sohasidagi normativ - huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish to‘g‘risida” 2023 - yil 20- oktyabrdagi 550-son qarori. <https://lex.uz//uz/docs/-6638940>
6. O`zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida” 2019- yil 11-martdaqi O‘RQ-528-son qonuni. <https://lex.uz/docs/-4233891>